

SHIFOKORLIK: KASBIY MAS'ULIYAT VA INSONIYLIK BURCHI*Ahmadjonova Dilraboxon Ilhomjon qizi**CAMU xalqaro tibbiyot universiteti 2-bosqich talabasi**Ilmiy raxbar: Alieva Gavxaroy Abdumutalipovna**Central Asian Medical University fiziologiya fani o'qituvchisi*

Annotatsiya: Maqolada shifokorlik kasbi – insoniyat uchun azaldan muhim va ulug‘vor kasblardan biri bo‘lib, jamiyatda o‘zining o‘rnii va mas’uliyati bilan ajralib turishi yoritilgan bo‘lib, zamonaviy tibbiyot sharoitida shifokorlar nafaqat kasalliklarni davolash, balki bemorlarning psixologik va ma’naviy holatini qo‘llab-quvvatlashda ham asosiy o‘rin egallaydi. Ushbu maqolada shifokorlik kasbining asosiy tamoyillari, kasbiy mas’uliyat, insoniy burch va psixologik yondashuvning zamonaviy tibbiyotdagi ahamiyati muhokama qilinadi.

Kalit so’zlar: shifokirlik, kasbiy mas’ulyat, insoniylik, psixologik, bemor, zamonaviy tibbiyot, burch, zamonaviy texnologiya, deontologiya

Аннотация: В статье профессия врача является одной из важнейших и благородных профессий для человечества, отличается своей ролью и ответственностью в обществе, а также играет ключевую роль в поддержании духовного состояния. В данной статье рассматриваются основные принципы профессии врача, профессиональная ответственность, человеческий долг, а также значение психологического подхода в современной медицине.

Ключевые слова: медицина, профессиональная ответственность, гуманность, психология, пациент, современная медицина, долг, современные технологии, деонтология.

Abstract: The article highlights the fact that the medical profession is one of the most important and noble professions for humanity, distinguished by its role and responsibility in society, and in the conditions of modern medicine, doctors play a key role not only in treating diseases, but also in supporting the psychological and spiritual state of patients. This article discusses the basic principles of the medical profession, professional responsibility, human duty and the importance of the psychological approach in modern medicine.

Keywords: medicine, professional responsibility, humanity, psychological, patient, modern medicine, duty, modern technology, deontology

Shifokor. Hozirgi zamonda xalqning e’tiboriga sazovor bo’layotgan va kasbi qadrlanayotgan insonlar qatoriga kiradi . Ularning muloqoti, davolash metodi , psixologiyasi eng asosiy masala hisoblanadi .

Zamonaviy texnika asridamiz barcha qulayliklar, afzalliklar biz uchun mujassam. Ba’zi bir davlatlarda xatto robotlar orqali tashkil qilingan shifoxonalarni eshitamiz. Ammo, bir dard bilan kasallangan inson kabinet eshigini taqqillatganida, uni chiroyli tabassum va shirin so’z bilan, oppoq farishta timsolidek bir inson kutib olishini va dardini tinglab, unga ozgina bo’lsa ham tasalli berishini xohlaydi. Ayniqsa, qandaydur og’ir kasallikdan shifokor yordami bilan davolanib, odatiy hayotga qaytganida, u inson uchun, xuddi Alloh tomonidan yuborilgan haloskor kabi tuyiladi. Lekin, shuni bilish lozimki, har doim ham bunday bo’lavermaydi. Inson taqdiriga yozilganidan qochib qutula olmaydi. Oddiy holatda ham shifokor yordam bera olmaydigan vaziyatga duch kelish mumkin va shu yerda haloskor deb atagan insoningiz ko’zingizga dunyodagi eng yomon inson bo’lib ko’rinadi. [1,2]

Shifokor Gippokrat qasami payti faqat kasallikni yo’q qilishi uchun qasam ichmaydi, qabuliga kelgandan to tuzalib ketgunigacha bo’lgan davrni nazorat qilishi kerak. Zarur bo’lsa oilaviy muammosini tinglab, shaxsiy hayotidagi bo’layotgan hodisa va jarayonlarini ham tinglashiga to’g’ri keladi. Ushbu o’rinda shifokor psixologiyasi va deontologiyasi katta o’rin tutadi(deontologiya-kasbiy burch,mas’uliyat). [5,6]

Shifokor qabuliga kelgan bemor xatti-harakati , so’zlashuv uslubi orqali uning nima demoqchilagini avvaldan payqab olish zarur. O’z kasbining ustalari albatta bunga qodir bo’ladi. Jumladan, tana harakatlar psixologiyasida keltirib o’tilgan barcha narsalarni chetda qoldirmaslik kerak . [3,4] Bunga ko’ra :

1) Kelgan bemor peshonasida gorizontal burmalar orqali sizga so’zlayotgan bo’lsa, u kasalidan qo’rquvda, hayratda va kasallik nimadan kelib chiqqanini angolmay shifokor huzuriga kelganini bildiradi. Bunda bemorni vahima qilmaslikka va dardini tinglab unga yordam bera olishni tushintirishga harakat qilib, tinchlantirish kerak.

2) Peshonadagi vertikal burmalar kimdur yoki nimadur orqali orttirilgan umumiyo diqqatning eng yuqori pallaga yetganini ko’rsatadi. Demak, shifokor birinchi natijasiga erishdi. Bemor diqqatini tortdi va kasallikga chuqurroq yondashishni boshlaydi.

3) Ko’zlar. Qat’iy va ochiq nigoh. Ko’pchilik insonlar ko’z qorachig’ini uzluksiz qimirlatmay qarashni tushinishadi. Ammo unday emas. Qat’iy nigoh bu o’ziga ishonchi, muloqotdagi insoniga nisbatan e’tiborning kuchlilagini bildiradi . Bu esa faqat qorachiq qimirlamasligina bo’lib qolmay, balki ko’zdagi ishonch hamdur . Agar shifokor bemor diqqatini so’zlar orqali jamlay olmasa, nigohi orqali o’ziga jalb eta olishi lozim .

4) Ko’z mushaklari. Bemorda ko’z qorachig’idan tashqari uning mushaklari bir qancha belgilarni ifodalaydi. Agar ko’zning yuqori qovog’i sal pastga tushgan bo’lsa, “osilgan qovoq” deb ataladi. Bu esa qiziqishning yo’qolishi sifatida tushiniladi.

5)Og'iz harakati. Inson taajjublanganida og'zining katta ochilishi notabiiy kuzatilmaydi . Lekin lablarning bir-biriga qattiq tiralishi va qisilishi biror narsani yashirayotgani va u haqida aytishni istamayotganini aks ettiradi . Bunda shifokor berayotgan savolini yoki so'zini o'zgartirishi yoki, umuman, boshqa mavzuga o'tishi lozimligini bilishi zarur.

6)Qo'l harakati. Muloqot jarayonida kuzatishimiz mumkin bo'lgan holatlardan biri bu – insonlar qo'llarining turlicha harakatlar bilan so'zlarini ifoda etishi. Kimgadur yoqmas, lekin bu o'ziga ishonchi va so'zlayotgan nutqidagi anqlikni bildiradi. Shifokor ham , ushbu uslubda bemor diqqatini jalg eta olishini bilishi kerak.

7)Ishonchsizlik harakati. Muloqotchi qo'li orqali bo'yin yoki qulqoq sohasini ishqalasa shifokorga nisbatan ishonchsizlik xissi uyğonganini bildiradi. O'zini tutishi, so'zlashuvi kasallik haqida bergen ma'lumotlari bemorni qoniqtirmagan yoki unchalik tushinmaganini aks ettiradi

8)Zerikish harakati. Agar shifokor haddan tashqari ilmiy terminlar orqali bemor bilan suhbat olib borsa , unga nisbatan zerikish paydo bo'ladi. Chunki shifokor qo'llaydigan ko'p terminlarni oddiy xalq bilavermaydi . Shuning uchun oddiy so'zlashuv uslubida dialog olib borishi lozim ko'rildi.

Yuqorida sanab o'tilgan psixologik metodlar bemorga har tomonlama yondashuvga yordam beradi. Chunki, arzimas qilingan xato tufayli katta kelishmovchilik yoki yatrogenik kasallik vujudga kelishi ehtimoli yo'q emas.

Shifokorlar nafaqat bir inson , balki, uning oilasi ,qarindoshlari va o'zining hayotini ham xavfga qo'yib ish qiladi . Shuning uchun barcha detallarga e'tibor berishi va mas'uliyat bilan yondashishi talab etiladi. [7,8]

Xulosa o'rinda aytishimiz mumkinki shifokorlik kasbi insoniyat tarixida doimiy hurmat va e'tiborga sazovor bo'lgan, insonparvarlikka asoslangan muhim kasblardan biri sanaladi. Zamonaviy tibbiyotning tezkor rivojlanishi va innovatsion texnologiyalarning davolash jarayoniga kirib kelishi shifokorlardan nafaqat ilmiy bilimlar va amaliy ko'nikmalarni, balki keng qamrovli insoniy fazilatlarni ham talab qiladi.

Kasbiy mas'uliyat shifokorlikning poydevori bo'lib, shifokorlar har bir qarorida bemor hayoti va sog'lig'i uchun javobgarlikni o'z zimmasiga oladi. Bu mas'uliyat ulardan halollik,adolat va anqlikni talab etadi. Insoniy burch esa shifokorning o'z ishiga bo'lgan samimiyligi va bag'rikeng yondashuvi bilan o'chanadi. Chunki bemorlar shifokordan nafaqat dori-darmon yoki operatsiya, balki ruhiy qo'llab-quvvatlash va mehr kutadi. Shifokorning e'tiborli va g'amxo'rlik bilan qilgan muomalasi ko'pincha bemorning sog'ayish jarayoniga ijobjiy ta'sir ko'rsatadi.

Shuningdek, psixologik yondashuv zamonaviy tibbiyotda alohida o'rin tutadi. Bemorning ruhiy holatini hisobga olish, uning his-tuyg'ularini anglash va qo'llab-quvvatlash nafaqat davolash jarayonining samaradorligini oshiradi, balki shifokor va

bemor o'rtasidagi ishonchli munosabatlarni ham mustahkamlaydi. Bu esa zamonaviy tibbiyotning asosiy tamoyillaridan biriga aylanmoqda.

Zamonaviy sharoitda shifokorlik faqatgina kasb emas, balki mas'uliyat, mehr, bilim va burchning uyg'unlashgan birlashmasi sifatida namoyon bo'lmoqda. Shuning uchun shifokorlar nafaqat o'z sohasidagi bilimlarni doimiy yangilab borishi, balki insoniy fazilatlarni rivojlantirishi va bemorlarga shaxs sifatida yondashishi juda muhimdir. Faqat shundagina zamonaviy tibbiyotning yuksak maqsadlariga erishish, bemorlarning ishonchini qozonish va sog'liqni saqlash tizimini yangi bosqichga olib chiqish mumkin bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Latipov, R. (2020). "Tibbiyot etikasi va shifokorlik burchi", Toshkent.
2. Abdulloyev, S. (2018). "Zamonaviy tibbiyotda shaxsiy mas'uliyat", Buxoro.
3. Iskandarov, O. (2019). "Kasbiy mas'uliyat va etika", Samarqand.
4. World Health Organization (2021). "Professional Responsibility in Healthcare", Geneva.
5. Nazarov, H. (2020). "Tibbiyotda insonparvarlik tamoyillari", Toshkent.
6. Beauchamp, T.L. & Childress, J.F. (2020). "Principles of Biomedical Ethics", New York.
7. Karimova, M. (2021). "Tibbiyotda psixologik yondashuvning ahamiyati", Toshkent.
8. Smith, J. (2019). "Psychological Approaches in Modern Medicine", London.